

Научный вестник Бухарского государственного университета * Scientific reports of Bukhara state University



BUKHARA
STATE
UNIVERSITY

ISSN 2181-6875

BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMI AJBOYOTI

3/2017



• ANIQ VA TABIIY FANLAR

- Комилов О.С., Астанов С.Х., Каххоров С.К., Аvezмуратов О., Мухамадова А.Б. Радиационно-конвективная гелиосушительная установка карусельного типа.....2
- Мамуров Б.Ж. О переходных функциях кубических и квадратичных стохастических процессов.....6
- Qutbedinov A.K., Mavlonova Y.I. Nisbiylik nazariyasi mavzusiga oid muammolar va ularni ilmiy anglash usullari.....10
- Юлдашев Х.Т., Хайдаров З., Касымов Ш.С. Исследование влияния токового усиления преобразовательных и выходных характеристик преобразователя изображений ионизационного типа.....13
- Фатоев И.И., Ашууров Ф.Б., Ашууров Ф.Н., Рахматов Т.М., Рахматов Р.Ш. Влияние технологии переработки высоконаполненных полимерных материалов на дефектность их структуры.....19
- Миrзоев А.А. Образования и разрушения структур в вязкопластических текучих средах и анализ механизма движения смесей.....25
- Элов Б.Б., Жўраев З.Ш. Электрон таълим тизими буйича стандартлар.....30
- Савриев Ю.С., Исмаатов С.Ш. Разработка способов повышения качества рафинированных масел.....36
- Рахмонов А.А. Обратная задача для системы интегро-дифференциальных уравнений SH - волны в упруго-пористой среде.....41
- Тўраев М.М. Кўк қарқара(Ardea cinera L.)ларнинг биоценздаги ўрнига доир маълумотлар.....46

• TILSHUNOSLIK

- Сапарова Қ.О. Рус ва ўзбек тилларидаги сегмент фоностилистик воситаларнинг қиёсий-типологик хусусиятлари ҳақида.....51
- Равшанов М., Алланазарова С.Х. Тилнинг ижодийлик ва динамик тавсифи масаласи.....55
- Ходжаева Д.И. Орфоэпик терминларнинг лугатлардаги талқини.....60
- Касымова Н.Ф. Дискурсивно-прагматический аспект английских интеррогативов, выражающих вежливость.....64
- Файзуллоев О.М. Лингвокультуремаларда мужассамлашган миллий қадрият.....69
- Жўрақўзиёв Н.И. Қадимги турк-будда шеърляти ва "Ирқ битиг"ларда космогоник образлар ҳамда самовий культ функциялари.....74
- Махмаримова Ш.Т. Локал мифологик тизимларда теоморф образлар: генезис ва теоморф метафораларга муносабат.....79
- Абдуллаева Н.Э. Лингвопрагматика: нутқий акт ва мақоллар.....84
- Раджабов Н.Н. Инглиз тили вокализм системаси хусусида.....90
- Рўзиёв Я.Б. Немис тили эргаш гапли қўшма гапларда келаси замоннинг ифодаланиши.....99
- Rakhimov M.M. Discursive meaning and the word.....106

• ADABIYOTSHUNOSLIK

- Ҳайитов Ш.А. Навоий насри нафосати.....111
- Нусратова Х.Ч. Сафар Барноев шеърлий-адабий эртақларида фольклоризмларнинг эстетик жиловлари.....115
- Zaripova R.I. Frazеologizmlaming o'rganilishi va taraqqiyot bosqichlari.....122
- Мизрабова Ж.И. "Макбет" трагедиясининг таржимаси муаммолари.....129
- Majidova M.S. Adalbert Shifter va uning "Brigitta" asarida matonati ayol obrazi talqini xususida.....134

• NAVOIY GULSHANI

- Сайлиева З.Р. "Айла басират кўзи бирла назар.....".....140

• FALSHAFA VA HUQUQ

- Раупов С.С. Мулк ўз амалдорлари билан гўзал ва кучлидир.....142

• TARIXSHUNOSLIK

- Ҳайитов Ш.А. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги (МДХ) ва Болтиқ буйи мамлакатларидаги ўзбеклар тарихи.....146
- Орзиёв М.З., Ризаев Б.Н. Америкадаги чероки ҳиндуларида нашриёт ишлари ва матбуот.....149

• IQTISODIYOT

- Наврўз-Зода Б.Н., Наврўз-Зода Ш.Б. Иқтисодиёт рақобатбардошлигини тизимли-тузилмавий усулда тадқиқ этиш.....156
- Абдуллоев А.Ж., Давлатов С.С., Тойирова С.А. Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини шакллантириш ва ривожлантиришнинг объектив зарурияти.....160
- Джамолов Б.Б. "Ягона дарча" марказлари фаолияти: аҳолига давлат хизматлари кўрсатиш янги босқичда.....166

• PEDAGOGIKA

- Yo'ldosheva D.N., Rajabova R.Z., Rajabova G.Z. Ona tili ta'limi vositalarining ta'lim maqsadi bilan aloqadorligi (o'rta umumta'lim maktablari misolida).....170
- Сайидова Н.С. Вебинар технологияларга асосланган малага ошириш ва олий таълим тизими жараёни.....174
- Po'latov A.A., Yusupov D.A., Soyipov J.J. Fanlararo aloqalar sistemasida matematik modellardan foydalanish.....180
- Кадиров Р.Х., Саидов И.И. Формирование здорового образа жизни в современном образовательном пространстве.....184
- Махсудов В.Г. Физикадан «механик тебранишлар» бўлимини амалиётда урганиш.....187
- Fayzullayeva G.Sh. Adabiy ta'lim sifatini uzluksizlik hamda uzviylikda ta'minlashning shart-sharoitlari.....191
- Хамраев И.Т. Жисмоний маданият факультети биринчи курс талабаларини олий ўқув юртида ўқитиш шароитига мослаштириш йўллари.....196
- Ниязов Л.Н. Кейс-стади усули ва ундан кимё таълимида фойдаланиш.....200
- Омонов П.Х. Чет тили таълимида компетентлик ва қадриятлар тушунчаларининг уйғунлиги.....206
- Атамуратов Ж.Ж., Ҳазратов Ф.Ҳ. Таълим сайтларини бошқариш.....211
- Салимова Ҳ.Ҳ., Назарова С.М. "Шўрланган тупроқлар" мавзусини ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш.....216

• SAN'ATSHUNOSLIK

- Авлиякулов М.М., Нуруллаев Ф.Ф. Кошинкорлик санъати сирлари.....220

• QUTLOV

- Ўраева Д., Қувватова Д., Ражабов Д. Ҳайдаров Анвар Аскарлович кутлуғ 60 ёшда.....226

• MONOGRAFIYA

- Муродов М.Н., Бозоров Н.Н. Муқобил энергия манбаларига оид янги адабиёт.....228
- Рашидов У.Ж. Бухоро хунармандчилиги дунё нигоҳида.....230

• E'LON

- "Бухоро давлат университети илмий ахбороти" журналида мақола эълон қилиш талаб ва шартлари.....232-233

Алишер Навоий биринчи истиорани “аниқ билиш, ишонишлик” маъноларини англатувчи “ийқон” сўзига дарахт ва унинг ҳосили (меvasи) маъносини англатувчи “ашжори асмори” бирикмасини қўшиш билан ҳосил қилади.

Иккинчи истиора эса “бирор нарсанинг ҳақиқатини излаш, текшириш; суриштириш, аниқлаш” мазмунидаги “таҳқиқ” сўзининг “саҳоб” (булут) ва “амтор” (ёмғир) калималари билан ташбиҳий муносабатда бўлиши орқали юзага чиқади.

Алишер Навоий мазкур истиоралар орқали “Шавоҳид ун-нубувват”нинг ишончли, замини мустаҳкам манбалар асосида яратилганлигини таъкидлайди. Расули Акрам (с.а.в.) ва бошқа пайғамбарлар ҳаёти, ахлоқи, фаолияти, мўъжизоти манзараларини ойдинлаштирувчи маълумотлар чуқур мантиқий мушоҳададан ўтказилганлиги, Ҳазрат Жомийнинг шубҳага ўрин қолдирмайдиган далиллар шоҳидлигида иш кўрганлиги хусусида ёрқин тасаввур уйғотади. Жумла яқунидаги “шаҳд” (асал), “ноб” (тоза, тиниқ, соф) сўзлари юқорида келтирилган рамзий-истиоравий иборалар мазмуни билан уйғунлашиб тарихий маълумотлар, илоҳий ривоятлар, ақидалар, қарашларни ўз давридаги ижтимоий ҳаёт, таълим-тарбия, ахлоқ мезонларига оид тасаввурлар заминида акс эттирган Жомий қаламининг сеҳрга, мўъжизаларга қодир эканлигини намойиш қилади.

Биз асосан “Хамсатул-мутаҳаййирин”даги бир байт ва икки жумланинг ғоявий-бадий хусусиятлари устида тўхталдик. Улуғ ижодкор насрий асарлари мағзидаги ташбиҳлар, рамзий ибора-истиоралар қанча чуқур ва изчил ўрганилса, сатрлар қатидаги ирфоний, маърифий, ахлоқий, ижтимоий маънолар шунча теран ва тўлиқ очила боради.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. – 304 б.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – 236 б.
3. Жалолоддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 192 б.
4. Ғаззолий. Ихёу улумиддин. Биринчи китоб. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – 232 б.
5. Ҳожи Бектоши Валий. Мақолот. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2000. – 56 б.

UDK 81'276.2:81'367.4=811.111/512.133

FRAZEOLOGIZMLARNING O`RGANILISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Zaripova Ra'no Ibodulloyevna

BuxDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (PhD)

Tayanch so`zlar: frazeologik iboralar, lug`aviy ma'no, mikrosistema, idiomatik iboralar.

Ключевые слова: фразеологические единицы, словарное значение, микросистема, идиоматические обороты (речи).

Key words: phraseological units, dictionary meaning, microsystem, idiomatic expressions.

Ushbu maqolada frazeologik iboralarning taraqqiyot bosqichlari va olimlarning frazeologiya borasida olib borgan ilmiy ta'limotlari xususida fikr yuritilgan.

В данной статье излагаются этапы развития фразеологических единиц, а также исследования учёных в сфере фразеологии.

The article discusses the stages of the development of phraseological units as well as scientific researches in the sphere of phraseology.

Kirish. Frazеologik iboralarning turli xil xususiyatlarining tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko`proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so`zlar soniga qarab e'tibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga ko`ra nechta so`zdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Ko`pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so`zdan ortiq bo`ladi, degan fikrlarni aytadilar. Ammo kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, frazeologik iboralar ikki,

uch va undan ortiq soʻzlardan iborat boʻladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir soʻzdan iborat iboralar ham bor deb aytadilar. Jumladan, professor A.Jafarovning fikricha, bir soʻzdan iborat iboralar idiomatik birikmaning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil boʻladi. Bu turdagi iboralar qoʻshma soʻz yoki yakka soʻz bilan ifodalanadi, ular toʻgʻridan toʻgʻri fikrni anglata olmasligi jihatidan ham qoʻshma soʻzlardan farq qiladi.

Toʻgʻri, bir soʻz orqali ham idiomatik maʼno anglashiladi. Lekin bunday soʻzlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora soʻzlar birikmasidan iborat boʻlishi kerak. Bu haqda V.V.Vinogradov, A.Abakumov, A.Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir.

Idiomatik soʻzlar faqat yolgʻiz soʻzlardangina tashkil topib, idiomatik maʼno anglatadi, lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarini anglata olmaydi.

Akademik V.V.Vinogradovning aytishicha, frazeologik birikmalarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qoʻshilmalarga aylanishi kerak frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qoʻshilmalarga taraqqiyot etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib, Sh.Raxmatullayevning "Idiomatik soʻzlar frazeologik qoʻshilmalar negizida vujudga keladi" degan fikrlari asoslidir. Frazeologik birikmalar asosan soʻzlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi boʻlib, tuzilishiga koʻra erkin bogʻlanma yoki gapga teng toʻliq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turgʻun soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi.

Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa qardosh tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari maʼlum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas.

Shu maʼnoda frazeolog olim A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining koʻpchiligining muallifi nomaʼlum boʻlib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda koʻrsatib oʻtgan. Ammo baʼzi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu maʼnoda frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema boʻlib, bu tizim oʻzida oʻtmish merosni, qadriyatlarini aks ettiradi, avlodan-avlodga oʻtadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning koʻpchiligi maʼlum tilning boyish manbaidir.

Frazeologik tizimini, frazeologik birliklar, ularning asosiy kamchiliklari oʻrtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq soʻzlardan tashkil topgan, maʼno va shakl jihatdan turgʻun boʻlgan soʻzlar bogʻlanmasidir. Frazeologizmlar koʻchma maʼnoda, obrazli ifodalarda qoʻllanadi hamda tarixiy qoʻllanish meyorlariga, usullariga ega boʻlib, ularning maʼnosi muayan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar soʻz birikmasi yoki gap shaklida boʻlsa-da, ular nutq birligi boʻlgan gaplardan farq qiladi. Ular lugʻaviy birlik sifatida koʻp jihatdan soʻzlarga yaqin turadi, soʻzlarga xos boʻlgan juda koʻp xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

"Frazeologiya" atamasi yunoncha "fraz" (phrasis- ifoda, nutq oʻrami) soʻzidan olingan boʻlsa-da, bu atama turlicha maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki maʼnoda qoʻllanishi maʼlum: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami maʼnosida, hamda shunday birliklarning oʻrganuvchi soha maʼnosida. Demak, frazeologiya, iboralar haqidagi ilmiy demakdir.

Tilshunoslikning boshqa sohalariga singari frazeologiya ham oʻzining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega.

Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiyot etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, birgina turkiyshunoslikda frazeologiyani sistemali ravishda oʻrganish oʻtgan asrning 40-50-yillaridan boshlandi. Shu davrda turli tillardagi frazeologik birliklarni grammatik, leksik-semantik jihatdan oʻrganish sohasida muhim yutuqlar qoʻlga kiritildi.

Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari, shubhasiz G.K.Kenesboev va Sh.U.Raxmatullayevlardir. Ularning oʻtgan XX asrning oʻrtalarida yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol oʻynaydi. Shu davrda frazeologiyalarni intensiv oʻrganish sohasida muhim yutuqlarni qoʻlga kiritishda jumladan, S.N.Muratovning "Turkiy tillarda turgʻun soʻz birikmalari" nomli monografiyasi, Sh.U.Raxmatullayevning "Oʻzbek frazeologiyasining ayrim masalalari", G.A.Bayramovning "Ozarbayjon tili frazeologiyasining asoslari", G.X.Axunzvanovning "Idiomalar" (tatar tili materiallari asosida tadqiqot), Z.G.Uraksinning "Boshqird tili frazeologiyasi", M.F.Chernovning "Hozirgi zamon Chuvash tili frazeologiyasi", N.Sh.Shammayevaning "Ingliz va turkman tillaridagi frazeologik birliklarining chogʻishtirish tadqiqi" nomli doktorlik

dissertatsiyasi; bir qancha monografiyalar, nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalari yaratib [16;8].

Rus tilshunosligida frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanmoqda. M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "Xalq (Rossiya) maqollari", "frazeslar" va "idiomatizmlar" o'z ifodasini topish lozimligini alohida ta'kidlagan edi.

Rus frazeologiyasi fani tarixi V.L.Arxangelskiy, E.X.Rot, V.N.Teliya, L.N.Royzenso, E.A.Malinovskiyning ilmiy tadqiqotlarida keng izohlangan. Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi shveystarlik franstuz tilshunosi Sharl Ballidir. Olim o'zining ikki yirik asari "Stilistika ocherki" (1905) va "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarlariga so'z birlashmalari, ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritilgan edi. U o'zining ilmiy asarlarida frazeologik birliklarning ichki va tashqi belgilarini o'zaro farqlagan edi. U ilmiy ta'limotida tildagi shunday birliklarning struktural xususiyatlari, tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari hisoblanishini ko'rsatib beradi.

Ferdinand de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) asarida sintagma, uning belgilari haqida fikr yuritadi. Ingliz tilidagi frazeologizmlarning aksariyati "Oxford Dictionary of English Idioms", "Longman Dictionary of English Language and Culture", "Wordworth Dictionary of phrase and fable" kabi lug'atlarda berilgan. A.V.Kuninning "Англо-русский фразеологический словарь", Smit L.P. "Фразеология английского языка", E.M.Solodukoning "Проблемы интернациональной фразеологии" (na materiale yazykov slavnyanskih, germanyanskih i romanyskiy gruppi) doktorlik dissertatsiyasida I.Xrazinska "Библиез мы в русской фразеологии" nomzodlik dissertatsiyalarida frazeologik birliklarning semantik- grammatik xususiyatlari tahlil qilingan.

Umuman olganda, frazeologiya keyingi yillarda tez sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada juda ko'plab mamlakatlar olimlarining diqqatida bo'ldi. Frazeologik birliklarning tabiati va hosil bo'lish usullari A.M.Babkin, Yu.A.Gvozdayev ishlarida uchraydi. Frazeologik birliklarning o'zaro sinonimik, antonimik variantdoshlik, omonimik xususiyatlari N.M.Shanskiy, A.M.Melerovich, V.A.Yastelenko ishlarida keng tahlilga tortilgan.

Iboralarning morfologik strukturasi va paradigmaticasi haqidagi ilmiy asoslangan nazariyalar V.P.Jukov, A.M.Chepasova, L.V.Semenkova tomonidan tadqiq qilingan. Frazeologik birliklarning gap tarkibidagi sintaktik vazifasi S.G.Gavrin, L.A.Kim, O.V.Shavkunova ishlarida ko'rsatib berilgan. Iboralarning qiyosiy, struktural-tipologik tahlil masalalarini Yu.P.Solodub, R.I.Popovich ishlarida ko'rish mumkin. Baynalminal frazeologiya masalalari V.V.Akurchenko, E.M.Soloduxoning ilmiy asarlarida asoslab berilgan. Ularning ishlari asosan ingliz va rus tillarning qiyosiy tipologiyasiga qaratilgan. Bunda frazeologik birliklar ikki til misolida qiyosiy tahlil qilingan.

Shuningdek, badiiy va publististik uslub frazeologiyasi masalalari ham tilshunoslikda keng o'rganilgan. Bu sohada V.N.Vakurov, M.A.Bakina, A.G.Lomov, I.Ya.Lepeshev ishlarini inson tajribasida keltirish mumkin. Ilmiy ishlardan tashqari tilshunoslikda darslik va qo'llanmalar ham yaratilgan.

A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, V.P.Jukovlar frazeologiyaga oid darslik va monografiyalar, shular jumlasidandir. Frazeologiya va frazeografiyaning shakllanish tarixini o'rganish L.I.Raoyzenso, M.M.Kopilenko, E.X.Rog, V.N.Teliya, E.A.Malinovskiy kabi yetuk olimlarning ishlariga bag'ishlanganligi ilm ahliga ma'lum.

Jahon tilshunosligida frazeologiyaning germanistika va romanistikasi erishgan yutuqlar bevosita yetuk olimlar N.N.Amosova, A.V.Kuninlarning ingliz frazeologiyasi tadqiqiga bag'shlangan ilmiy ishlari katta ilmiy qimmatga ega. Nemis frazeologiyasining rivojlanishida I.I.Chernisheva, A.D.Rayshteyn xizmatlari uikan bo'lsa, franstuz tili frazeologizmlari ustida V.G.Gak, N.N.Kirilova, A.G.Nazaryan ilmiy tadqiqotlar olib berganlar.

O'tgan XX asrning so'nggi qirq yilida hamdo'stlik mamlakatlarida frazeologiya sohasida ilmiy qimmatga ega bo'lgan yuzlab ishlar yuzaga keldi. Ozarbaydjon tilshunosligida bu sohada K.Yu.Aliyev, G.A.Bayramov, A.Gurbanov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, frazeologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Arman, boshqird, gruzin tilshunosligida ham frazeologiya masalalari keng o'rganilgan. E. U. Gevorkyan, Z. G. Uraksin, A. L. Onlani, A. A. Taxashivili kabi olimlarning ilmiy ishlarini aynan frazeologiya ilmining taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Taniqli frazeolog N. N. Amosova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko'pincha frazeolog olimlarning turli tillar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari samarasidir".

Tilshunoslikda frazeologiya fanining rivojlanish tarixini uch davrga bo'lib o'rganish mumkin.

1. XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi. Birinchi davrda yetuk tilshunos olimlar V. I. Lomonosov, V. I. Dal', A. A. Botebnya, F. F. Fortunatov, F. I. Buslayev, Sharh Balli, A. A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati rivojlandi va sohaning shakllanishida poydevor vazifasini o'tadi. O'sha davrda frazeologiya ko'proq leksikografiya, ya'ni amaliy lug'atshunoslik ob'yekti bo'lib xizmat qilgan va asosan frazeologik birliklarning lug'atlarda aks ettirish, ularning ma'nosini, etimologiyasini izohlashga alohida ahamiyat berilgan.

2. XX asrning 30-50-yillari frazeologiya sohasining rivojlanishida ikkinchi davr hisoblanadi. Bu davrni frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri ham deyish mumkin. Bu davrda yetuk tilshunos olimlar E. D. Polivanov, V. V. Vinogradov, S. I. Abakumov, E. K. Danilov, G. O. Vinokur, A. I. Yefimov kabi tilshunoslar frazeologiya sohasida samarali mehnat qilgan va qator ilmiy asarlar yaratdilar. Bu davrda ko'plab nomzodlik va doktortik dissertatsiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlandi.

3. XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgacha frazeologiya sohasining uchinchi davridir. Bu davrda frazeologik tadqiqotlarda yangi metodlarning qo'llanishi, frazeologik nazariyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Bu davrda ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi, frazeologiya alohida soha sifatida tilshunoslikda o'z o'rni va mavqega ega bo'ldi. Prof. E. A. Malinovskiy "XX asrda rus frazeologik nazariyasining shakllanishi" nomli monografiyasini yaratdi. Monografiyada olim XX asrda frazeologik ta'minotning shakllanishi tarixini 4 davrga bo'ladi.

1) XX asr boshlarida rus tilshunosligida vujudga kelgan frazeologik ta'limot; (1900-1920 yillarda)

2) Ulug' vatan urushiga bo'lgan davr rus tilshunosligida frazeologiya ta'limotning taraqqiyoti; (1920-1940)

3) XX asrning 50-60-yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning rivojlanishi;

4) XX asrning 70-80-yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning taraqqiyoti.

Frazeologiya sohasining alohida fan sifatida rivojlanishida V. V. Vinogradovning xizmatlari namoqlikdir. U o'zining ilmiy asarlarida frazeologizmlarni uch sinfga bo'ladi:

1. Frazeologik chatishmalar.

2. Frazeologik qo'shimmalar.

3. Frazeologik birlashmalar.

Frazeologizmlarning birinchi guruhi komponentlarning ma'nolari butun birliklarning ma'nosiga aloqador bo'lmagan birliklardir. Masalan,

heavy father - teatr asaridagi asosiy rol;

rich the bucket - olmoq;

red tape - byurokratik metod kabi frazeologizmlar yaxlit hamda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir. Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'zgargan so'z birkmasidir.

Ammo frazeologik qo'shimmalardan farqli o'laroq, ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi. Frazeologik qo'shimmalar ma'nosi bir butun frazeologizmning

frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlardir. Metaforaga asoslangan, ma'no ko'chirish aniq va oydindir. Frazeologik qo'shimmalarning leksik komponentlari eng turg'un iboralar

hisoblanadi. Masalan,

- to look a gift horse in the mouth (to examine a person too critically. To find fault with smth one gained without effort);
- to ride the hide horse (to behave in a superior, haughtily, over bearing way);
- a big bug (a person to importance);

- to fish out of water (a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment)

Frazeologik material murakkab va ko'p aspektli bo'lgani uchun keyingi yillarda u turli metodlar, usullar yordamida o'rganilmoqda. Bu o'rinda frazeologik birliklarni o'rganish quyidagi metod va usullarini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi: identifikatsiya metodi. Uning vakillari sifatida yetuk tilshunos olimlar Shari Balli va A.V.Kunindir.

Kontekstologik metod uning vakili N.N.Amosova bo'lib, asosan matnlar tarkibida keladigan frazeologik birliklarni o'rganadi.

Variation metod (V.L.Arxangelskiy), frazeologik applikatsiya metodi (V.P.Jukov) struktural tipologik metod (L.I.Rayzenon, Y.K.Avaliani, Yu.P.Solodub), komparativ metod (S.G.Gavriloboralarni semantic doiralar asosida o'rganish metodi (M.T.Tagiyev) leksema va frazemalar denotativ va konnotativ semalarga ajratib o'rganish metodi (M.M.Kopilenko), kabilar [13]. Yuqorida sanab o'tilgan metodlar bir-birini to'ldiradi va frazeologik birliklarning xilma-tomonlarini, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini, valentlik imkoniyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi [13].

Frazeologik birliklar mazmun planiga ko'ra leksik birliklarga yaqin turadi, ifoda planiga ko'ra ular sintaktik birlik (so'z birikmasi, gap)larga yaqindir. Ammo frazeologik birliklar so'z ham, so'z birikmasiga ham, gapga ham to'la ma'noda teng emas.

Frazeologiya masalalarini o'rganish, bu sohani tadqiq etish, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bunday frazeologiya sohasiga doir o'rganilmagan muammolar qolmadi, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Frazeologizm atamasi turkiyshunoslikda ham turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Karimbek o'sha davrdan an'analardan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lganidek o'z asarida "faza" so'zini "jumla", "gap" ma'nosida qo'llagan. Frazeologik birlikma deyilganda esa so'zdan yirik til birliklarini tushungan.

Ozarbaydjon tilshunoslari B.Cho'ponzoda va F.Og'azoda "Turk tili grammatikasi" asarida o'z ilmining bo'limlari haqida fikr yuritib, "Semasiologiya", "Stilistika" atamaları bilan birga o'z davrda tilshunoslikda keng qo'llanishida bo'lgan "idiomatizm" atamasiga qarshi "idiotizm" so'zini ishlatgan. Frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan yosh sohalardan biridir, chunki uni sistemaviy ravishda o'rganish, frazeologik birliklarning semantic-grammatik xususiyatlari, funktsional xususiyatlarini o'rganish XX asrning 40-50-yillaridan boshlandi. Frazeologik birliklarning funktsional jihatdan so'zga yaqin ekanligini hisobga olib, ayrim tilshunoslar ularni leksik so'z birikmalari yoki leksik birliklar deb hisoblaganlar hamda sintaksis yoki yasalishi sohalari haqida o'rganish ob'ekti doirasiga kiritganlar.

Rus tilshunosligida bo'lganidek, turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma'noda tushunish ham davom etmoqda. Frazeologizmlarni keng ma'noda barcha turg'un birlikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birlikmalar, ularning noidiomatik turg'un frazeologik guruhlari va juft so'zlar kiradi. Ularning birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg'unlik va tilde tayyor holda mavjudlikdir [2].

S.K.Kenesboyev turg'un so'z birikmalari orasidan frazeologiyani tor ma'noda tushunish uchun bevosita asos bo'ladigan guruhlarni alohida ajratib ko'rsatgan.

Tilshunoslikda "frazeologiyani ob'ekti alohida ajratilgan til birligi sifatida qo'llanuvchi turg'un so'z birikmalaridir" degan fikr mavjud. Bu fikr olg'a surilgach, tilde "turg'un birlikma" tushunchasini mohiyatini olib beruvchi ilmiy ishlar yuzaga keldi.

Frazeologik birliklar turg'un birlikmalardan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar:

- a) semantik yaxlitlik;
- b) obrazlilik;
- c) ko'chma ma'nolilik.

Frazeologiya sohasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar olib borish frazeologiyani umumnazariy muammolarini hal etishga keng yo'l ochadi. Umuman olganda frazeologik birliklarning shakllanish manbalarini aniqlash turg'un birlikmalarni etimologik jihatdan tahlil etishga nisbatan ancha keng mazmunga ega. Bu umumfilologik muammo bo'lib, eng qadimgi, dastlabki frazeologik modellarning shakllanish bosqichlarini aniqlash muhim semantik masala sanaladi [8].

Frazeologik birliklarni turli narsa, hodisa, joy nomlari, kishi nomlari bilan bog'liq o'rganish ham hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb masalalardan sanaladi.

Til tadqiqotchisi D.Niyazmetova "Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi" (Bibliya materiallari) maqolasida frazeologizmi lingvokul'turologiyada o'rganish dolzarb va munozarali masalalardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bibliyaga bog'liq bo'lgan oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning semantic, lingvokul'turologik xususiyatlarini aniqlashda lug'atlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil va statistic metodlar qo'llanishini kuzatish mumkin.

Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so'z va iboralar S.Soffelning "Studies in English, written and spoken" kitobida keng taqdim qilingan. "Scriptural phrases and allusions in modern" bobida olim bibliya iboralarini va ularning etimologiyasini o'rganib ilmiy jihatdan tahlil qiladi.

G'arb tilshunosligida bibleizmlarni o'rganish yana L.P.Smit nomi bilan bog'liq, u o'zining "Ingliz tili frazeologiyasi" kitobida bibliya iboralarga bag'ishlangan bo'limida o'rgangan. Muallif "Ingliz tilidagi bibliya oborotlari va iboralarining soni shunchalik ko'pki, ularni yig'ish va sanab chiqish juda oson vazifa emas" deb yozadi [4]. L.P.Smit ingliz tili nafaqat bir talay bibliya so'zlarini, balki o'zida qadimgi yevrey va yunon idiomalari so'zma-so'z tarjimasini namoyish qiladigan bibliya idiomatic iboralarini ham o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi.

Tahlillar natijasida Bibliya bilan bog'liq bo'lgan oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarga misol qilib quyidagilarni keltiramiz:

- the apple of one's eye	ko'z qorachig'li, ko'zining oqu-qorasi;
- Adam's apple	qo'shtomoq, kekirdak olmasi;
- the apple of sodom	chiroyli, ammo aynigan ho'l meva;
- milk and honey	to'kin-sochinlik, mo'l-ko'lchilik;
- the fat of the land	to'kin-sochinlik, baraka;
- Manna from heaven	zor-intizor bo'lib kutmoq
- A forbidden fruit	Ta'qiqlangan ho'l meva

Bibliyaga asoslangan frazeologizmlar ingliz tilidagi oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar tarkibida "apple", "bread", "milk", "fat", "olive" kabi oziq-ovqat nomlari mavjud.

Ingliz tilida joy nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar ham mavjud. Ularning tahlil va tadqiqi tadqiqotchi M.Radjabovning ilmiy ishida uchraydi [3]. Joy nomlarini o'rganish nafaqat tilshunoslikning, balki tarix va geografiyaning ob'yekti sifatida ham qaraladi. Joy nomlari bilan kelgan frazeologizmlar tarkibida lingvomadaniy tadqiq qilish, ularning milliy madaniy tomonlarini yoritib berish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Joy nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar quyidagi birliklarni misol qilish mumkin.

have kissed the blarnly stone tilyog'lamachi, xushomadgo'y.

Iriandiyada Blarny qasri oldida kata bir tosh bo'lib, ingliz xalqi afsonalarga ko'ra, bu toshni o'pgan odam xushomadgo'ylik, laganbardorlik qobiliyatiga ega bo'ladi.

- go for a Burton - o'lmoq, ko'z yummoq, izsiz yoqolmoq.

Burton - Staffordshir viloyatidagi pivo ishlab chiqaradigan kichik shahar. Bu iborani britaniyalik uchuvchilar birinchi marta II Jahon urushi davrida o'zlarining urushda halok bo'lgan quroldosh do'stlarini eslab ishlatgan.

Milliy va madaniy frazeologik birliklarning ko'pchiligi xalqning kundalik turmush tarzi, rasm-rusumlari va urf-odatlarini bilan bog'liq. Ularning aksariyati milliy-madaniy sharoitda vujudga kelib, tilning frazeologik qatlamini boyitadi. Ingliz tilida frazeologizmlarning intensivlik ifodalash xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Tilshunoslikda hozirgi kunda frazeologiya keng va tor ma'noda tushuniladi. Frazeologiyani keng doirada tushunuvchi olimlar, uning tarkibiga maqol, matal, aforizmlar hamda boshqa frazeologizmlarni kiritadilar. Tor doiradagi frazeologiya tarafdorlari esa yaxlit ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan chegaralanadilar. Ular o'zlarining frazeologik tadqiqotlarida faqat birikmaga teng bo'lgan frazeologik birikmalarni tadqiq etib, maqol va matallarni frazeologiya ob'yekti sifatida baholamaydilar.

A.V.Kunin frazeologik birliklarni o'rganar ekan, to'rtinchi guruhga kommunikativ frazeologik birliklarni kiritgan, maqol va matallar ham xuddi shu yerdan o'rin olgan. A.V.Kuninning fikricha: "frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalovchi turg'un birliklardir.

Frazeologik birliklarda intensivlik sxemasi ham mavjud. Intensivlik markerlariga: extremely, very, large, great, strong, deep, completely, much, many, the most, a lot of kabilar kiradi.

Masalan: dead beat, dead tired (informed) extremely tired, exhausted, dead weight something that is very heavy.

Frazeologik birliklar yana modellar asosida ham tahlil qilinadi.

Adjective+Noun:

- a) dead drunk – completely drunk;
- b) a dead weight – something that is very heavy;
- c) a good drink – a large quantity;

Masalan,

Bill had a good drink at the pub last night. His wife wasn't at home.

- a) hard drinks-liquor-strong alcoholic drinks;
- b) hard drugs-the strongest drugs which lead to addiction most easy
- c) a high wind – a strong wind;
- d) a dark horse- a person who has a greater capabilities that he shows or than people are aware of;
- e) a flying visit - a very short visit;
- f) a golden opportunity – a very good opportunity.

Verb+noun:

- a) to earn good money – to earn a lot of money;
- b) to do someone a world of good(barm) – to do someone a lot of good (barm);

to be + prepositional phrases:

- a) to be at a loss (to do something) – to be very puzzled;
- b) to be at pains to do something –to take great trouble to do sit;
- c) to be at one's(c) to be in the money- to be earning or to love a lot of money;
- d) to be in (the)pink –to be in good health; to be feeling very well.

Frazeologik birikmalarning semantic tasnifi olimlar tomonidan turlicha tavsiflanadi. N.N.Amosovning tasnifida frazeologik birliklar ikki guruhga bo'linadi: idiomalar va frazemalar.

Frazemada so'zning birinchi komponenti o'z ma'nosida, ikkinchi komponenti esa idiomatic ma'noda bo'lib, ular bir-biri bilan shu tarzda bog'lanadi.

Masalan: a golden opportunity - a very good opportunity.

Idiomatik so'zlar o'zining dastlabki to'g'ri ma'nosidan uzoqlashib, ular bilan sinonimik holatida bo'lib, faqat ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Idiomatik so'zlar faqat yolg'iz so'zlardan tashkil topib, idiomatic ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglatmaydi.

Akademik V.V.Vinogradovning fikricha, frazeologik birikmalarning taraqqiyoti frazeologik butunliklardan boshlanib, frazeologik qo'shilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyin esa frazeologik qo'shilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Ushbu fikrga asoslanib, o'zbek tilshunosligida frazeolog olim Sh.Raxmatullayevning "Idiomatik so'zlar frazeologik qo'shilmalar negizida vujudga keldi: O'zbek tilidagi idiomatic so'zlar quyidagicha taraqqiyot etaplarini bosib o'tdi.

Avvalo, frazeologik butunlik- frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma-idiomatik so'z.

Ko'rinadiki, idiomatik so'zning idiomatic ma'no anglatishi o'zining dastlabki bosqichidan meros bo'lib qolgan. Idiomatik so'zlar o'zining dastlabki bosqichida so'z birikmalaridan iborat bo'lgan. Taraqqiyot natijasida esa yakka so'zga aylangan. Ammo shunga qaramasdan, idiomatic so'zlarni ibora deb bo'lmaydi. Iboralar faqat so'zlar birikmasidan iboratdir. Shu boisdan ham iboralarni tashqi holatiga qarab, quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) ikki so'zdan tashkil topgan iboralar;
- b) Uch so'zdan tashkil topgan iboralar.

Masalan, a) baker's dozen; lion hunter; fortune hunter; dry nurse, printer's devil, tailor's dummy;

b) mad as a hunter; sheep without a shepherd's pie; tiliers of soil; white collar worker, blue collar worker;

Xulosa shuki, frazeologik birliklar tilning alohida birligi bo'lib, ular erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik shakllangan obrazni turg'un so'z birikmalaridir. Ularning deyarli barchasi xalq tomonidan yaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -- T.: Sharq, 2010. -- 175 b.
2. Amosova N.N. Основы английской фразеологии. -- Л.: Ленинградского университета, 1963. -- 208 с.
3. Axmatova A.S. Словарь лингвистических терминов. -- 2-е изд., -- М.: УРСС, 2004. -- 571 с.
4. Антрушина Г.Б. Лексикология английского языка: Учеб. Пособие для студентов. (на англ.яз) / Г.Б.Антрушина, О.В.Афанасьева, Н.Н.Морозова// -- М.: Дрофа, 1999. -- 288 с.
5. Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов (на материале сатирического журнала «Муштум»), Автореферат дневник- кандидата фил.наук. -- Т.: Ленинобод 1969. -- 246 с.
6. Barotova M. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning ma'no va shakli xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. -- Buxoro, 2004.
7. Виноградов В.В. Лексикология ва лексикография. -- М.: Наука, 1977. -- 377 с.
8. Gindzburg G.A. A course in Modern English Lexicology. -- М.: Высшая школа, 1979. -- 269 с.
9. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy til'. -- T.: Fan, 1988.
10. Федулёноква Т.Н. Английская фразеология. -- Архангельск, 2000. -- 132 с.
11. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. -- T., 1993. -- 47 b.
12. Kunin A.V. Курс фразеологии современного английского языка -- М.: Русский язык, 1984. -- 944 с.
13. Kunin A.V. Английская фразеология -- М.: Высшая школа, 1970. -- 344 с.
14. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarning shakllanishi masalalari// O'TA. -- 2001, 3-son.
15. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, diaxroniya materiallar to'plami. -- T.: Muharrir, 2012. -- B. 8-10.

UDK 371

САФАР БАРНОЕВ ШЕЪРИЙ-АДАБИЙ ЭРТАКЛАРИДА ФОЛЬКЛОРИЗМЛАРНИНГ ЭСТЕТИК ЖИЛОЛАРИ

Нусратова Хаида Чўлибоевна

БухДУ Бошлангич ва мактабгача таълим услубиёти кафедраси катта ўқитувчиси

Таянч сўзлар: шеърий эртақ, фольклоризм, ўзбек болалар адабиёти, ватанпарлик, инсонийлик, илм эгаллаш мавзуси, характер, бола қалби.

Ключевые слова: поэтическая сказка, фольклоризм, узбекская детская литература, патриотизм, человечество, предмет науки, характер, сердца детей.

Key words: poetic fairy tale, folklorism, Uzbek children literature, patriotism, humanity, the theme of acquiring the knowledge, character, the soul of a child.

Мақолада болалар шоири С.Барноевнинг лиро-эпик жанр шеърий-адабий эртақларда фольклоризмдан фойдаланиш маҳорати ҳақида фикр юритилади.

В данной статье рассмотрено использование лиро-эпических жанров фольклора, в частности, литературно-поэтической сказки, в творчестве детского поэта Барноева С.

The article deals with the expertise of S.Barноеv in using folklorisms in poetic and literary fairy tales of lyric and epic genres.

Кириш. Ўзбек болалар адабиётида шеърий-адабий эртақчилик анъанаси XX асрнинг бошларида халқ оғзаки ижоди таъсирида пайдо бўлди, 30-40 йилларда ривожлана бошлади. Бу соҳада биринчилардан бўлиб Ҳамза, Элбек ва Ҳамид Олимжондек иқтидорли шоирларимизнинг илк шеърий адабий эртақнавис сифатида танилиши бежиз эмас. Элбекнинг "Сичқоннинг қиз узатиши", "От ила одам (Эл эртаги)", Ҳамид Олимжоннинг "Ойгул билан Бахтиёр", "Семурғ ёки Паризод ва Бунёд" ва бошқа ижодкорларнинг 30